

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ S/4 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Махсус сон

*№ 5/4 (3) - 2023*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Аббасов Беҳзод Бахтиёрвич*  
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ  
ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ  
БОШЛАНИШИ ..... 10-21
- Бабалжанов Хасан Бахтиёрвич*  
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ  
ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ ..... 22-27
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*  
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ..... 28-36
- Rasulov Ma'murjon Foziljonovich*  
O'ZBEKISTONDA XALQARO SAYYONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS  
OBJEKTLARINING O'RNI ..... 37-42
- Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна*  
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ  
ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ ..... 43-51
- Esonov Ziyodbek Yuldashevich*  
FARG'ONA VODIYSI QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN ..... 52-58
- Фарманова Гульнара Комилевна*  
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА  
АФРАСИАБЕ ..... 59-65
- Turaev Sherzod Gulboy ugli*  
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN  
OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH ..... 66-71
- Сотиболдиев Файратжон Отамирзаевич*  
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА  
ЕЧИМЛАР ..... 72-78
- Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*  
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ  
ТАВСИФИ ..... 79-90
- Абдуллажанова Нигорахон Турдалиевна*  
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН ..... 91-95
- Дониёров Носиржон Абдухолиқ ўғли*  
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН ..... 96-102

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқулова*  
ИСЛОМИЙ СУҒУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 103-109

<i>Фозилов Умид Закирович</i> БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ .....	110-118
<i>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</i> BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O‘RNI .....	119-125
<i>Орзукулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи</i> ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ .....	126-133
<i>Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur</i> O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI .....	134-139
<i>Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li</i> YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....	140-146
<i>Ёдгорова Шахноза Хайридиновна</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ .....	147-155
<i>Qurbonov Ma‘murjon G‘ayrat o‘g‘li</i> ASOSIY ISHLAB CHIQRISH KO‘RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI .....	156-166
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i> BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O‘ZBEKISTON TURIZMI RIVOJLANISHIDAGI ANAMIYATI .....	167-172
<i>Маматов Бахадир Сафаралиевич</i> РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛАНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ .....	173-188
<i>Ғойипназаров Санжар Баходирович</i> ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҚАМЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	189-195
<i>Садинов Азиз Зиядуллаевич</i> ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	196-203
<i>Қурбонова Раҳима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Хакимов Дамир</i> ИЖТИМОЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ .....	204-216
<i>Asatxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o‘g‘li</i> YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSİYALARNI YO‘NALTIRISH ZARURIYATI .....	217-222

*Исломов Алишер Бахтиёр ўғли*  
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ  
ТАЪМИНЛАШ ..... 223-229

*Agzatova Nargiza Garurovna*  
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN ..... 230-237

*Муродова Дилноза Чориевна*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ  
ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ ..... 238-245

*Khodjaeva Shodiyabonu Abitdjanovna*  
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING  
FUNKSIYALARI ..... 246-250

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна*  
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ  
ЎРНИ ..... 251-259

*Ibroximov Sarvar Mo'yudinjon o'g'li*  
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 260-265

*Yuldashev Ibroxim To'uchiyevich*  
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO  
UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING  
MUSHTARAKLIGI ..... 266-271

*Khamdamova Sitora Safarovna*  
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA  
XOSLIGI ..... 272-277

*Абдуллаев Джасур Абдиваит ўғли*  
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО  
ЧЕЛОВЕКА ..... 278-283

### **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Xasanov Akbarjon Abdurashidovich*  
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK  
BIRLIKLAR BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR ..... 284-292

*Qurbonova Muharram Jurabekovna*  
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI ..... 293-297

*Сафарова Замира Рустамовна*  
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК  
ТАСНИФИ ..... 298-304



<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i> THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS' ....	305-313
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi</i> ETEL LILIAN VOYNICHNING "SO'NA" ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ...	314-318
<i>Seytnazarova Injayim Erjanovna</i> TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDA LMALARNING USLUBIY QO'LLANILISHI .....	319-325
<i>Асадова Дилбархон</i> ЎРХОН ПАМУҚНИНГ "ҚОРА КИТОБ" РОМАНИДА "ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ" МОТИВИ .....	326-342
<i>Khusanov Eldor Davlat o'g'li</i> BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI .....	343-348

### **12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Утемуратов Махмут Ажимуратович</i> ЖАМИЯТДА ҲУҚУҚИЙ ОНГ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ҲУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	349-355
<i>Шымбергенова Улзада</i> ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	356-362
<i>Полвонов Нажмиддин Аслиддинович</i> ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ .....	363-372
<i>Мирзаев Шухрат Шавкатович</i> КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ .....	373-382
<i>Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли</i> "ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИАТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ" .....	383-392
<i>Махмудов Суннат Азим ўғли</i> ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	393-399

### **13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Farrux Axmedov</i> XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH .....	400-409
<i>Музафарова Саодат Хайдаровна</i> ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ .....	410-415



<i>Xaydarova Iroda Nizomiddinovna</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ...	416-421
<i>Шукурова Нафиса Алишеровна</i> ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ .....	422-427
<i>Nigmanov Bori Botirovich</i> FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI .....	428-433
<i>Муродова Дурдона Раимжон қизи</i> БЎЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ .....	434-438
<i>Axmedov Alisher Nosir o'g'li</i> ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI .....	439-447
<i>Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI .....	448-452
<i>Mansurbekova Feruza Gayratovna</i> BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	453-456
<i>Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna</i> O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI .....	457-465
<i>Atamuratova Munira</i> O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL METODLAR TAVSIFI .....	466-471
<i>Нурилло Эминов</i> ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА БИР НАЗАР .....	472-476

13.00.00 – Педагогика фанлари

**Xodjayev Bolta Qurbonovich**  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, pedagogik fanlari nomzodi

**Xojiyeva Matluba Shukurovna**  
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

### **O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish orqali, uning kasbiy mahoratini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, mazmun-mohiyati, nazariy va amaliy jihatlari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, pedagogik maqsadni qo'yish hamda kasbiy mahoratni oshirishda, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishni rejalashtirish bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi mehnati, ilmiy asos, pedagogik mahorat, takomillashtirish, harakat, pedagogik ta'sir, oshirish, maqsad, nazariy bilim, amaliy ko'nikma.

**Ходжаев Болта Курбанович**  
Доцент Бухарского государственного университета,  
кандидат педагогических наук

**Ходжиева Матлюба Шукуровна**  
Преподаватель кафедры педагогики  
Бухарского государственного университета

### **СПОСОБЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДА УЧИТЕЛЯ НА НАУЧНОЙ ОСНОВЕ**

**Аннотация.** В статье содержатся мысли о педагогических условиях, сущностях, теоретических и практических особенностях совершенствования профессионального мастерства современного учителя путём научной организации педагогического труда. Также содержится, планирование научной организации труда, что является важным фактором и средством определения цели в повышении педагогического мастерства.

**Ключевые слова:** труд учителя, научный, основа, педагогического мастерства, совершенствование, действие, педагогическое влияние, повышение, научное знание, практический навык.

**Khojaev Bolta Kurbanovich**  
Associate Professor of Bukhara State University,  
Candidate of Pedagogical Sciences

**Khodzhieva Matlyuba Shukurovna**  
Teacher, Department of Pedagogy, Bukhara State University

### **WAYS OF ORGANIZING THE WORK OF A TEACHER ON A SCIENTIFIC BASIS**

**Abstract.** The article contains thoughts about pedagogical conditions, essences, theoretical and practical features of improving the professional skills of a modern teacher through the scientific organization of pedagogical work. It also contains the planning of the scientific organization of labor, which is an important factor and means of determining the goal in improving pedagogical skills.

**Key words:** teacher work, scientific, basis, pedagogical skills, improvement, action, pedagogical influence, improvement, scientific knowledge, practical skill

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N59>

**Kirish.** Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirib, ta'lim – tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, uzulksiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifati hamda raqobatbardoshligini ta'minlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun jahon ta'lim tizimiga asoslangan o'quv – tarbiya mazmunining sifat darajasini oshirish, bu jarayonda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarining ilmiy va innovatsion tayyorgarliklarini oshirish pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sabab Prezident Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida, “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda, qoloqlik, jaholat, va albatta to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek “Eng katta boylik - bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish, uzluksiz xayotiy ehtiyojga aylanishi kerak [1]. deb qilgan da'vat barcha uchun, shu jumladan uzluksiz ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan xodimlarning o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil etish lozimligiga ishoradir.

Darhaqiqat, pedagogik ishni ilmiy asosda tashkil etilishi xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirishga, ilmiy- texnika taraqqiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, uni yuksak darajaga ko'tarishga amaliy yordam ko'rsatadi. Ma'lumki, XXI asrda fan-texnikaning jadal rivojlanishi, sanoat, qishloq xo'jaligining texnologiyalashishi, mehnat va uni tashkil etuvchi fanlar majmuasini yanada rivojlanishi va nihoyat pedagogik nazariyasi va amaliyotning yangi pog'onaga ko'tarilishi pedagogik faoliyatni ilmiy asosida tashkil etish lozimligini ko'rsatmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va ma'naviy-ma'rifiy hayotining hozirgi bosqichida pedagogik mehnatni ilmiy asosida tashkil etishning ahamiyati katta. Zotan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning mazmun-mohiti quyidagilarni qamrab oladi:

1. Fan va texnikaning so'ngi va muhim yutuqlaridan foydalanish:

- a) eng so'ngi pedagogik yutuq va innovatsion nazariyalar;
- b) o'quv- tarbiya jarayonini optimallashtirish va texnologiyalashtirish;
- v) ilg'or axborot texnologiyalari bilan ta'minlash.

2. O'quv jarayonini optimal tashkil qilish va texnologiyalashtirish:

- a) o'quv jarayonini optimallashtirish va texnologiyalashtirishni loyihalash;
- b) o'quv – metodik ishlarni ilmiy asosida tashkil qilish;
- v) ish kunini optimal rejalashtirish.

3. Ta'lim jarayonini boshqarashni modernizatsiyalash:

- a) Ta'lim-tarbiya ishlarini optimallashtirish va texnologiyalashtirish ;
- b) tezkari aloqa shakllarini qo'llaylashtirish va jadallashtirish;

- v) o'quvchi yoshlarning mustaqil ta'limini boshqarish;
- g) dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbqiq etish;
- d) mehnat intizomi va pedagogik mehnatni rag'batlantirish.

4. O'quv jarayonini zamonaviy o'quv jihozlari bilan ta'minlash va ularning ish faoliyatini optimallashtirish:

- a) o'quv jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash;
- b) o'quv mashg'ulotida foydalanadigan o'quv uskunalari standartlash;
- v) o'quv jarayonini har xil pedagogik va axborot vositalari bilan ta'minlash.

5. Mehnat sharoitini qulaylashtirish:

- a) psixologik va anatomo-fiziologik omillarni hisobga olish;
- b) sanitariya – gigiena sharoitlarini yaratish;
- v) mehnat xavsizligini ta'minlash.

6. Mehnat estetikasi va madaniyati:

a) o'qituvchining yuksak madaniyat egasi bo'lib, estetik did bilan kiyinishi va xushmuomala bo'lishini yo'lga qo'yish;

b) o'quv kabinetlari va dars xonalarini estetik did bilan jihozlash va tozalikka muntazam rioya qilish;

v) ta'lim muassasasidagi maishiy xizmat darajasi va madaniyatini yuksaltirish.

Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishni muayyan qonuniyatlar va tamoyillar asosida loyihalash rus pedagogi I.P.Rachenkoning "Научная организация педагогического труда" (1972), "NOT uchitelya" (1982) [5], nomli kitoblarida atroflicha yoritilgan. Muallifning fikricha pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish uchta asosiy qonuniyatga asoslanadi. Bular:

1. **Maksimal tejamkorlik va vaqtdan unumli foydalanish.** Bu qonuniyat pedagogik faoliyatda ishni aniq rejalashtirish va rejani o'z vaqtida bajarilishiga e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Mehnatdan tejamkorlik bilan foydalanish vaqtni rejali taqsimlash bilan birga jamoaviy faoliyatni aniq yo'lga qo'yishni nazarda tutadi. Bunda o'qituvchining mehnat qilishi va dam olishi uchun qulay shart-sharoit yaratish va ulardan samarali foydalanish muhimdir. Bunda vaqt budjeti muhim komponent hisoblanadi. Vaqt mehnat jarayonini asosiy o'lchovi sifatida – nafaqat falsafiy, ijtimoiy, iqtisodiy kategoriya, balki pedagogik tushuncha hamdir.

2. **Dars uchun belgilangan vaqtdan aniq foydalanish.** O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan kamida har bir dars uchun bir soat vaqt ajratilishi talabga muvofiq. Demak o'qituvchi bir kunda uch soat dars bersa, uch soat uning tayyorgarligiga vaqt sarflaydi. Dars mashg'ulotidagi vaqti jadvalda ko'rsatilgan o'quv soatlari bilan belgilanadi.

3. **Bo'sh vaqtdan mazmunli foydalanish.** Bo'sh vaqt deganda o'qituvchining ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi, badiiy, ilmiy, publistik kitoblar o'qishi ular asosida mustaqil ma'lumot olishi, madaniy xordiq chiqarish ya'ni jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, gazeta va jurnallar o'qish, do'stlar bilan muloqot o'tkazish, teleko'rsatuvlar tamosho qilish. Bularga ajratilgan vaqt besamar bo'lmasligi uchun, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishga harakat qilmog'lari darkor.

Pedagog mehnatini ilmiy asosida tashkil etish, ayniqsa, yosh o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosida to'g'ri tashkil etish borasidagi ko'rsatmalar uch yo'nalishda, ya'ni o'qituvchi

kasbiga oid faoliyat; o'z kasbiy maxorat elementlarini hosil qilish; o'quvchilar guruxi bilan ishlarini tashkil qilish kabi ko'rsatmalar A.A.Xoliqov tomonida tavsiya qilingan [5, 315-316].

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda nazariy va amaliy yo'nalishda tashkil etish ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarni kasbiy mahoratini shakllantirish va o'quv - tarbiya jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. Shuning uchun ta'lim muassasalari o'qituvchilarini mehnatini ilmiy asosda tashkil etish davr talabidir. Tajribaning ko'rsatishicha, bu jarayonni rivojlantirishga yordam beruvchi, ayni paytda to'sqinlik qiluvchi muayyan darajadagi yo'llar mavjud. Bular kuyidagilar:

**1-yo'l.** O'qituvchi pedagogik ijodining rivojlanganlik darajasi. O'qituvchining faoliyatini yaxshilash va mahorat pillapoyalaridan yuksalishi yaratuvchanlik pedagogik, uddaburolik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, pedagogik ijod asosida shakllanadi va rivojlanadi. Chunki bu jarayonda o'qituvchining aqliy, emotsional – irodaviy, ma'naviy-axloqiy xususiyatlari va tashkilotchilik, bilimdonlik fazilatlarini shakllanadi va takkomilashadi. Ularning o'zaro bog'liqligini, yahtiligini bir butunlikda tavsiflash pedagogik ijodkorlikni anglatadi. Bunda har bir o'qituvchi va pedagogik jamoani mehnatini ratsional (teng) taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi.

**2-yo'l.** O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllanganlik darajasi. Ma'lumki pedagogik mahorat - bu pedagogik faoliyatni ustalik va mohirlik bilan boshqarish jarayoni. Bu jarayon kasbiy pedagogik tayyorgarlikni, pedagogik-psixologik bilimdonlikni, shaxs psixologiyasini, ta'im-tarbiyaning mazmun – mohiyatini, o'quvchi – yoshlarning bilish jarayoni (sezgi, idrok, diqqat, xotira, xayol)ni, emotsional-irodaviy sifatlar (hissiyot, emotsiya, iroda)ni, ijtimoiy-yo'nalgan xususiyalar (ehtiyot, qiziqish, intilish)ni, ortirilgan kasbiy xususiyatlar (bilim, ko'nikma, malaka, odatlar)ni o'rganib anglab olish asosida shakllanib boradi. Bular faqatgina o'qituvchining mehnatini ilmiy asosida tashkil qilganda ijobiy yo'nalish kasb etadi.

**3-yo'l.** O'qituvchilar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish. Bu shart ta'lim muassasasida fan va texnikaning uzluksiz rivojlanishi jarayonida o'qituvchilarning o'z malakalarini muntazam ravishda takomillashtirib borishni toqazo qiladi. Buning uchun, o'qituvchilar muntazam ravishda ilg'or pedagogik tajribani o'rganishi, mustaqil bilim olishni va o'z ustida ilmiy-nazariy va amaliy ishlashni yo'lga qo'yishi, muntazam ravishda fan asoslarini o'rganish ishlarini amalga oshirishini yo'lga qo'yilishi lozim. Pedagogika fanlari doktori, professor K.Z.Zaripovning ta'kidlashicha, "Ilg'or pedagog", avvalo, boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga ma'suliyat bilan qaraydi, shu sohada ijobiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali u o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

"Novator – pedagog" bo'lsa, bizningcha o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator – o'qituvchilarda ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlari ham bo'ladi. Ularning ko'pchiligida g'oyat murrakab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

"Ijodkor – o'qituvchida" ham "Ilg'or pedagog" dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin, ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or – pedagog mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim va tarbiya bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaray biladi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l-yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat toqazosida o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli

metodik usullardan foydalanadi” [7,57] deb ta’kidlagan edi. Yuqorida qayd etilganidek, “Ilg’or pedagog” ham, “Novator pedagog” ham, “Ijodkor pedagog” ham o’z ishiga mas’uliyat bilan qarab, kasbiga oid ma’lumotlarni, tajribalarni qunt bilan o’rganishi, pedagogik mahoratini muntazam oshirib borish orqali, ilg’orlikka, novatorlikka, ijodkorlikka erishadi.

**4-yo’l.** O’quv-tarbiya jarayonini moddiy-texnik bazasini ta’minlash va ishchi o’rinlarini tashkil etish.

Bu shart pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning muhim shartlaridan biri, bu ta’lim muassasasida ishchi o’rinlarini yaratish va o’quv-tarbiya jarayonini moddiy texnika asosini ta’minlashni nazarda tutadi. Bu o’z navbatida o’qituvchi – tarbiyachilarning aniq ish me’yorlarini ta’lim-tarbiya vazifalari asosida belgilab, o’z mehnat yo’nalishlarini ilmiy asosida loyihalash imkonini yaratadi. To’g’ri belgilangan ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat o’qituvchidan shu jarayonni takkomillashtirish va samaradorligini oshirishni talab etadi. Buning yagona yo’li ilmiy nazariya va amaliy tajriba ta’kidlashicha faoliyatni ilmiy asosida va boshqarishni nazarda tutadi. Faoliyatni ilmiy asosda tashkil qilish uchun muayyan moddiy texnik ta’minot lozim bo’ladi. Buning uchun ta’lim muassasasida o’quv – tarbiya ishlarini tashkil etishda ta’lim vositalarini, metodik ta’minotni inobatga olish muhim omil hisoblanadi.

**5-yo’l.** Pedagogik mehnatni loyihalash, me’yorlashtirish, hisobga olish va nazorat qilish darajasi. Har qanday faoliyatning natijasi uni aniq rejalash, me’yorlarni belgilash, hisobga olish va nazorat qilish orqali belgilanishi mumkinligini ko’rsatmoqda. Shu o’rinda ta’kidlash joizki ishni ilmiy asosda tashkil qilish uchun, avvalo, uni aniq loyihalash, har bir loyihadagi bosqich uchun faoliyatni me’yorlash, amalga oshirishni hisobga olish va nazorat qilish orqali samarali bo’ladi. Shuni inobatga olib ta’lim muassasalarida har bir o’qituvchi – tarbiyachi o’quv yilining boshida, dastavval o’z faoliyatini yillik va strategik jihatdan loyihalashni o’rganishi kerak. Yillik loyiha deganda, o’qituvchining bir o’quv yilida o’z faoliyatini, jumladan, pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish nazarda tutilsa, strategik loyiha besh yillik va undan ortiq yillardagi faoliyatni qamrab oladi. O’qituvchi yillik pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishi uchun mustaqil bilim olish, yoki o’z ustida ishlash reja – mazmuniga o’z o’quv faniga doir, pedagogika, psixologiya, metodika hamda ijtimoiy-siyosiy tayyorgarligiga doir ma’lumotlarni loyihalashtirishi lozim.

**6-yo’l.** Jamoada sog’lom ma’naviy- ahloqiy muhit tashkil etish va pedagogik mehnatni stimullashtirish. Bu shart o’qituvchi ishlaydigan pedagogik jamoada sog’lom ma’naviy ahloqiy muhitni tashkil etish hamda o’qituvchilar o’rtasidagi do’stona ishchi munosabatlarni vujudga keltirish, o’qituvchi, o’quvchi, rahbar o’rtasidagi o’rtoqlik, do’stlik, o’zaro yordam muhitini yaratishni nazarda tutadi. Zero, sog’lom ma’naviy-ahloqiy muhit ta’lim muassasalarida xodimlariga sensomotor qo’zg’ovchi sifatida ularning ko’rish, eshitish, bilish, anglash, maqsadni belgilash kabi kasbiy xususiyatlarga ta’lim-tarbiyaviy ta’sirni kuchaytirib, faoliyatni ijodiy lashtiriga ko’maklashadi. Bu jarayonda ijodiy mehnatga shart-sharoit yaratilib maqsadga erishish amalga oshiriladi. Pedagogik jamoadagi sog’lom ma’naviy - ahloqiy muhit hamda pedagogik mehnatni rag’batlantirish o’quv-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishga yordam beradi va o’qituvchining ijodiy faoliyat, izlanish ishlari bilan shug’ullanish uchun imkoniyat yaratiladi.

Fan - texnika va texnologiya rivojlangan hozirgi davrda har bir mehnat ahlining vaqtini va mehnatni aniq loyihalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoda ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayoniga, fan-texnika, kompyuter texnologiyasi yutuqlarini keng jalb qilish har bir kasb ahlining mehnat xarakterini tubdan o’zgartirdi. Har bir

mehnat kishisi zimmasiga o'z bilimi va mahoratini fan-texnika yutuqlari va kompyuter texnologiyasi asosida muntazzam oshirish majburiyatini yuklaydi.

O'qituvchi shaxsiy mehnatini aniq tashkil etish o'z mazmuniga quyidagilarni qamrab oladi:

1. O'qituvchining o'quv – tarbiya ishlari.
2. O'qituvchining bo'sh vaqtini loyihalashi.
3. Vaqtni boshqarish texnikasini egallashi.
4. Kitob bilan ishlash texnikasi.

**1. O'qituvchining o'quv-tarbiya ishlari.** Ma'lumki har bir o'qituvchi o'quv-tarbiya ishlari bilan shug'ullanadi, bu vaqt bilan bog'liq. Shunga binoan vaqtni aniq belgilash barcha yutuqlarning asosi hisoblanadi. Bu esa o'qituvchidan o'quv tarbiya ishlari jarayonida dars o'tish, qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish, o'quvchilar bilan maslahat va tarbiya soatlarini o'tkazishni nazarda tutadi va uni samarali tashkil etish yuzasidan rus pedagogi G.I.Gorskayaning maktabda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha tavsiyalari mavjud bo'lib, uni har bir o'qituvchi va pedagog xodim yaxshi biladi va amalga oshiradi [8]. O'qituvchining mehnatni ilmiy asosda tashkil etishni eng muhim qismi bu bo'sh vaqtni aniq belgilash orqali pedagogik mahorat hamda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga yordam ko'rsatishdir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki agar o'quv-tarbiya jarayonida bo'sh vaqt uchun qulay sharoitlar yaratish berish imkoni bo'lmasa o'qituvchilarning ham quvchilarning ham sarflagan ish kuchini qayta tiklash chorasini ko'rish, buning uchun tanaffuslar vaqtini tez-tez almashtirib, auditoriya va sinf xonalarini yangilash va xona havosini tozalab turish lozim.

**2. O'qituvchining bo'sh vaqtini loyihalash.** Bo'sh vaqtning asosiy vazifasi o'qituvchini shaxs sifatida har tomonlama va garmonik rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatdan maqsadga muvofiq foydalanishdan iborat. Hozirgi zamonda bo'sh vaqtning ahamiyati tobora ortib bormoqda, buning sababi axbortlar tizimining ortishi va ulardan unumli foydalanish imkoniyati. Bu esa ish unumdorligini oshirishga yordam ko'rsatadi. Bu o'qituvchidan bo'sh vaqtni bekorchi ishlarga sarflamaslikni balki ular kasbiy yo'nalishga qaratilgan bo'lishini talab etiladi. Bunda bo'sh vaqt omillarini hisobga olish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bu omillar quyidagicha tashkil topgan bo'lishi mumkin:

Birinchi: Har bir daqiqaning qadriga yetish, u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun vaqtni aniq belgilash, ya'ni vaqtga sifat bahosini berish  
Ikkinchi: ishning boshlanishi va tugallanishini vaqtini tahminan bo'lsada, tez va aniq belgilashga odatlanish.

Uchinchi: belgilangan vaqtda loyihalashtirilgan ishni to'liq bajarish va ishni uddalay olishga o'rganish.

To'rtinchi: Pedagogik mehnatni vaqt bo'yicha (bir kun davomida, haftada, bir oyda, yil davomida va h.k.) loyihalashtirishga o'rganish.

Beshinchi: Rejalashtirilgan vaqtda amalga ishirlangan ishlarning natijasi, vaqt sarfini aniq hisob-kitob qilib nazorat ishini olib borish.

**3. Vaqtni tashkil etish texnikasini** yana bir bosqichi – kerakli va keraksiz ishlarga sarf qilinadigan vaqtni aniqlashdir. O'qituvchi yuqorida aytib o'tkanimizdek har doim o'quvchilar, ota – onalar va jamoatchilik bilan ish olib boradi, shuning uchun ular bilan tashkillashtiriladigan faoliyat vaqt aniq rejalashtirilishi va tartibga solinishi darkor.



Vaqtning tashkil etish texnikasi o'z mazmuniga, o'qituvchining dars mashg'ulotiga sarflaydigan vaqtning, o'quvchilar, ota-onalar, jamoatchilik bilan olib boriladigan ishning kelgusi darsga tayyorgarlik uchun adabiyotlarni o'rganish va hordiq chiqarish uchun sarflanadigan vaqtning aniq rejalashtirishi lozim. Bunda o'qituvchining vaqt budjeti faoliyat uchun kerak bo'lgan va keraksiz narsalarni inobatga olib rejalashtirilishi maqsadga muvofiq.

**4. Kitob bilan ishlash texnikasi.** Kitob ommaviy va ilmiy-texnik axborotning vositasi, siyosiy va mafkuraviy kurash, bilimlarni tarqatish, ta'lim va tarbiya manbaidir. Kitob bilan ishlash pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning muhim shartlaridan biri. Chunki hozirgi taraqqiyot bosqichida o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, ilmiy, siyosiy, ma'rifiy axbortlarning tez rivojlanib borayotgan oqimi jarayoni to'g'ri yo'lni topa bilishning muhim kaliti hisoblanadi

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishda, o'rganilayotgan muammo yuzasidan, kitobni chuqur o'rganish va kitob mazmuni to'g'risida faol fikr yuritish va tahlil qilish muhim texnika hisoblanadi. Demak, kitobni o'qishda quruq qiroatxonlikka berilmay, o'z oldiga qo'ygan muammoni aniqlash va uni yechishga harakat qilish lozim. Shuning uchun, dastavval o'qituvchi kitob o'qishga kirishar ekan, o'z oldiga muayyan muammo yuzasidan nimalarni bilaman va nimalarni bilmayman degan savollarni qo'yishi kerak. Bunda B.Q.Xodjeyev, B.B.Xodjeyev o'zlarining "Kitob bilan ishlash – mustaqil bilim olishni takkomillashtirish omili" nomli maqolalarida bayon qilinganidek kitob ustida ishlashning quyidagi metodlardan foydalanishlari maqsadga muvofiq: "1.Kitobga ko'z yugurtirib chiqish; 2.Kitobni sidirg'asiga o'qish; 3.Kitobni o'rganish; 4.Kitobdan qisman foydalanish" [4,53].

Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishda o'qituvchining mustaqil bilim olishi va o'z ustida mustaqil ishlashi muhim pedagogik psixologik mazmun kasb etib, o'qituvchining nazariy-metodologik hamda kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Misol tariqasida Buxoro viloyat Peshku tumani shahridagi 21-umumiy o'rta maktabning informatika fani o'qituvchisi F.F.Xojiyevning mustaqil bilim olish ish rejasini keltiramiz:

1. Nazariy - g'oyaviy tayyorgarlikni yuksaltirish:

a) muntazam ravishda maktabdagi va shahardagi siyosiy o'qish mashg'ulotlariga ishtirok etish;

b) siyosiy – o'quv mashg'ulotlariga ma'ruza tayyorlash;

v) har kuni OAV ma'lumotlari bilan tanishib borish;

g) "Xalq ta'limi", "Pedagogik mahorat" jurnallaridagi maqolalar bilan tanishib borish.

2. Ilmiy-nazariy saviyani oshirish:

a) muntazam ravishda ijtimoiy-siyosiy, ilmiy – nazariy sohasidagi ommabop adabiyotlarni o'qib borish;

b) yil davomida ta'lim tarbiyaning nazariy masalalariga doir ma'lumotlarni o'rganish;

v) mahalla, jamoatchilik bilan "Bir bolaga yetti mahalla tarbiyachi", "Bolaning darsdan so'ngi bo'sh vaqti", "intizom haqida" mavzularida mahalla va jamoatchilik o'rtasida chiqishlar qilish;

g) ota-onalar uchun oilada jismoniy tarbiya va ma'naviy ahloqiy salohiyatni yuksaltirish ishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha maslahatlar o'tkazish.

3. Pedagogika va psixologiya fanlari masalalarini o'rganish:

a) tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini o'rganish;

b) "Pedagogik ta'lim psixolog nigohida" mavzusida ma'ruza tayyorlash;

v) darsda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik – psixologik asoslari bo'yicha mustaqil o'qishni tashkil qilish;

g) ota-onalar bilan “Men o'zimdagi barcha ijobiy xislatlarni kitobdan topdim”, “Kitob mening do'stim” mavzularida suhbatlar o'tkazish.

4. Innovatsion axborot texnologik tayyorgarligi:

a) davr va zamonaviy axborot texnologiyalari yo'nalishida ma'lumotlarni egallash;

b) darsda innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik – psixologik asoslari yo'nalishida ma'lumotlar bilan qurollanish;

v) tele va radio eshittirishlarini muntazam eshitish va ularda ishtirok etish;

g) metod birlashmada: “Zamonaviy axborot texnologiyalari mening faoliyatimda”, “Axborot texnologiyasi ta'lim samaradorligi omili” mavzularida suhbatlar o'tkazish.

Har bir o'qituvchi mustaqil bilim olishni yuqorida qayt etilgandek rejalashtirsa, u umumiy o'rta ta'lim muassalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarni tuman (shahar) viloyat, halq ta'limi bo'limlarida, oliygohlarda o'tkaziladigan ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy anjumanlarda, seminarlarda, pedagogik o'qishlarda, ilg'or tajriba maktablari faoliyatlarida muntazam ishtirokini ta'minlaydi va ularning pedagogik mahoratini yuksaltirishga ko'maklashadi.

**Xulosa.** Shunday qilib umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qituvchilar mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish davr talabi bo'lib, o'qituvchi kasbiy mahoratini takomillashtiradi va ta'lim oluvchilarni barkamol insoblar qilib tarbiyalashda yordam beradi. Chunki, mazkur faoliyat o'qituvchilar ishiga to'g'ri baho berish, ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirish va bilim oluvchilarni bilimdon zukko ma'nviyati yuksak shaxslar bo'lishiga amaliy yordam ko'rsatadi, asosida ijtimoiy buyurtma bajariladi. Shu o'rnida alohida qayd qilish lozimki, xalq ta'limi tizimini yangilash, uning faoliyatini davr talablari va ehtiyojlari asosida tashkil etish, uning har bir tashkilotchisidan yuksak ijtimoiy faollik, siyosiy onglik, huquqiy bilimdonlik, aql-zakovatlikni talab etadi. Bu esa muntazam izlanish, o'qish-o'rganish asosida murakkab ta'limiy-tarbiyaviy muammolar yechimini topishning muhim sharti hisoblanadi. Bunga faqat ilmiy-pedagogik nazariy va amaliy tajribaning ko'rsatishicha, pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish orqali erishish mumkin.

#### Adabiyotlar / Литература / References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. – “Xalq so'zi” ro'znomasi, 2020, 20yanvar, 1- son, 2 bet.
2. Mamurov .B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyixalash ko'nikmalarini rivojlantirish. Monografiya.- T: fan, 2017.
3. Mamurov, B. B. "Акмеологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков." Педагогическое образование и наука 3 (2016): 147.
4. Xodjayev B.Q., Xodjayev B.B. kitob bilan ishlash – mustaqil bilim olishni takomillashtirish omili. / Uzluksiz ta'lim tizimida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari (respublika ilmiy- amaliy konferensiya materiallari). – Buxoro, 2017
5. Xoliqov A.A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

6. Радченко И. П. НОТ учителя: Кн. для учителя //ИП Радченко–М.: Просвещение. – 1989. – Т. 238.
7. Зарипов К.З.Ўқитувчилар малакасини оширишда мактаб раҳбарларининг роли ўқитувчи, -Т.: “Ўқитувчи”, 1993,57-бет.
8. Горская Г. И. Организация учебно-воспитательного процесса. – 1977.
9. Хожиева М. Ш., Хамраев Б. Т. НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 41-45.
10. Ходжиева М. Ш. Совершенствование аксиологического подхода к педагогической деятельности у будущих учителей //Научный журнал. – 2020. – №. 9 (54). – С. 43-45.
11. Туевич К. В., Shukurovna K. M. Communication and development of pedagogical culture of the future teacher //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 35 (119). – С. 4-9.
12. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
13. Ходжаев Б. К., Жураев Б. Т. Повышение нравственно-эстетической культуры слушателей института повышения квалификации работников народного образования //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1217-1222.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

*№ 5/4 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).